CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

AZIMQULOV SAYXUN NIYOZALI O‘G‘LI

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALAR INDIVIDUAL FAOLIYATINI BAHOLASHDA “NO CLONE” DASTURIDAN FOYDALANISH METODIKASI

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Azimqulov Sayxun Niyozali o‘g‘li
Raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholashda “NO CLONE” dasturidan foydalanish metodikasi ……..... 3

Азимкулов Сайхун Ниязали угли
Методология использования программы «NO CLONE» для оценки индивидуальной успеваемости учащихся в цифровой образовательной среде …….....21

Azimkulov Saykhun Niyozali ogli
Methodology of using the “NO CLONE” program in assessing individual student performance in a digital learning environmen…….....41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 45

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

AZIMQULOV SAYXUN NIYOZALI O‘G‘LI

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALAR INDIVIDUAL FAOLIYATINI BAHOLASHDA “NO CLONE” DASTURIDAN FOYDALANISH METODIKASI

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq – 2026

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Ped13129 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.cspu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Yalg‘ashev Burxon Fayzullaevich** Fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Kayumova Nasiba Ashurovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor; **Abdullayev Alibek Qodiraliyevich** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent.
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2026.26.08.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720 Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (998) 70-712-27-55; faks: (998) 70-712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720 Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel.: (998) 70-712-27-55; faks: (998) 70-712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “____”_____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, pedagogika fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A.Himmataliev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda ta’limni raqamlashtirish sharoitida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash mazmunini takomillashtirishning me’yoriy asoslarini ishlab chiqish, shuningdek, umumta’lim fanlarini o‘qitishga qo‘yiladigan talablar doirasida soha o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Finlandiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlarning oliy ta’lim muassasalarida informatika fanining strategik mavqei tobora ortib bormoqda. Yevropa Ittifoqining Erasmus+ doirasidagi “Digital Pedagogy for Smart Teachers” kabi dasturlar yordamida raqamli muhitda mustaqil ta’lim olish, virtual laboratoriyalardan foydalanish va ochiq resurslar asosida izlanish olib borish imkoniyatlari kengaytirilmoqda. Bu bo‘lajak informatika o‘qituvchilariga axborot ta’lim resurslaridan foydalana oladigan va ularni ishlab chiqish kompetensiyalariga ega tajribali, malakali, zamonaviy mutaxassislar tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari yetakchi oliy ta’lim muassasalarida informatika faniga tayangan holda umumta’lim fanlarini o‘qitishning metodik tizimi komponentlarini takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish, ularda raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholash dasturidan foydalanish mazmunini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Bo‘lajak pedagoglarni kasbga tayyorlashda fan mazmunining tarkibiy tuzilishi va yetakchi yo‘nalishlari hamda o‘qitish mazmunining uzviy takomillashuvi ilmiy asoslangan bo‘lishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtai nazardan raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholash, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbga tayyorlash mazmunini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholashning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish, umumta’lim fanlarini o‘qitish sifatini oshirish bo‘yicha qator tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli ta’lim” konsepsiyasi asosida oliy ta’lim muassasalarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, raqamli pedagoglar salohiyatini oshirish bo‘yicha milliy dasturlar ishlab chiqilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Taraqqiyotlar strategiyasida[1] “oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish” asosiy vazifalar sifatida belgilangan. Shu ma’noda, respublikamiz pedagogika oliy ta’lim muassasalarida pedagoglarni tayyorlash mazmuni va mavjud o‘qitish metodikasi hamda texnologiyalarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6079-son, 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–5349-son Farmonlari, 2023 yil 24 maydagi “Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-162-son, 2020-yil 6-oktyabrdagi “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-son Qarori kabi huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatstiya tadqiqotining natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizda ta’limni raqamlashtirish hamda o‘qitish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo’llash nazariyasi va metodologiyasi masalalari A.A.Abduqodirov, A.M.Aripov, U.Begimqulov, M.H.Lutfillaev, I.I.Raxmatov, N.R.Yusufbekova, A.Omonov, U.M.Rasulov, D.K.Mo’minovalar, uzluksiz ta’lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv masalalarida J.E.Usarov, N.A.Muslimov, L.T.Xurvalieva, F.Murodovalar, ta’lim jarayonida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish hamda bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlash muammolari F.Zakirova, M.Fayziyeva, X.X.Muratov, B.E.Qodirov, N.O.Shog‘darov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida raqamli kompetensiyalar, o‘qituvchilarini tayyorlash metodologiyasi bo’yicha E.V.Lebedeva, L.M.Andryuxina, A.V.Xutorskoy, I.P.Matveeva, A.V.Morozov, E.Yu.Shcherbina, A.G.Kislovlar tomonidan, pedagoglarni tayyorlash mazmunini va metodik tayyorgarligini oshirish asosida kasbga tayyorlash masalalari bilan A.Bespalko, Y.V.Ustyujanina, S.G.Yevsyukov, A.G.Leonov kabilar tomonidan tadqiq etilgan.

Xorij davlatlarida M.P.Laptev, I.V.Robert, N.I.Pak va T.A.Dorofeeva, V.V.Grinshpun, F.Mikre, A.Haleem, M.Javaid, M.A.Qadri, N.Khan, H.Raza, B.Stephanie, K.Regmi kabi olimlar ta’limda axborot texnologiyalarini qo‘llash, jarayonni raqamlashtirish ahamiyati va ulardan foydalanish asoslari bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishgan.

Ushbu tadqiqot ishlari oliy ta’lim muassasasi talabalari individual faoliyatini baholashda maxsus dasturlardan foydalanish masalasini pedagogik muammo sifatida o‘rganish zarurati mavjudligini asoslaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universitetining “Uzluksiz ta’limda o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqarish va takomillashtirish” ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholashda “no clone” dasturidan foydalanish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual faoliyatini baholashning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual faoliyatini baholash modelini ishlab chiqish;

baholash tizimlarini raqamlashtirish texnologiyalarini “No clone” platformasi asosida takomillashtirish;

No clone dasturi samaradorligini baholash mezonlarini takomillashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholashda pedagoglarini dasturiy- didaktik vositalaridan foydalanishga tayyorlash jarayoni belgilanib, tadqiqotda Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Qarshi davlat universiteti hamda Namangan davlat pedagogika institutining 485 nafar talabalari ishtirok etgan.

Tadqiqot predmetini raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholashda “No clone” dasturidan foydalanishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qo‘yilgan maqsadga erishish va vazifalarni hal qilish uchun ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, mantiqiy, ilmiy-metodik manbalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish, modellashtirish (loyihalash), sotsiometrik (anketa, test, so‘rov, suhbat), bevosita va bilvosita pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik-statistik qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish kabi nazariy-empirik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual faoliyatini baholashning didaktik imkoniyatlari ta’lim platformalarida talaba faolligini nazorat qiluvchi topshiriqlar ierarxiyasi mustaqil ta’limda matnlar nomuvofiqligiga yo‘nalishlarga mos kontentlarda maqbullashtirish asosida aniqlashtirilgan;

raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual faoliyatini baholash modeli mustaqil topshiriq matnlar orginalligini ochiq axborot almashish jarayonida akademik topshiriqlarni kasbiy algoritm bo‘yicha natijalarning foydalanuvchilar profillarida aks etishini erkin reglamentda ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

baholash tizimlarini raqamlashtirish texnologiyalarini “No clone” platformasi talabalarning raqamli savodxonligini kasbiy rivojlantirishga mo‘ljallangan “No Clone” mini loyihalarni kod o‘xshashligini tahlil qilishga mo‘ljallangan topshiriqlarga implementatsiya qilish asosida takomillashtirilgan;

baholash tizimlarini raqamlashtirish texnologiyalarini “No clone” platformasi asosida baholash mezonlari monitoring qilishga mo‘ljallangan mantiqiy tahlil jarayonini kod o‘xshashligi monitoringi asosida tashkil etish talabalarning raqamli faolligini oshiruvchi unikal modifikatsiya ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo‘lajak pedagoglarini tayyorlashning mazmuni, tuzilmasi va uni pedagogika oliy ta’lim muassasalariga joriy etish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

pedagogika oliy ta’lim muassasalari bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun nazariy holatlar va xulosalarni o‘z ichiga oladigan “Pedagogik dasturiy vositalar” nomli o‘quv qo‘llanma nashr qilingan;

talabalarning individual faoliyatini baholashga mo`ljallangan *noclone.mi-mt.uz* platformasi ishlab chiqilgan;

talabalarning mustaqil ish topshiriqlarini plagiatga tekshiruvchi “No clone” dasturi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, muammoga falsafiy, ilmiy-pedagogik va psixologik yondashilgani, tadqiqot natijalarini Oliy attestatsiya komissiyasi e’tirof etgan maxsus va xorijiy jurnallarda chop etish orqali ommalashtirilgani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo‘lajak pedagoglarni kasbga tayyorlashning tarkibiy tuzilishi va komponentlari aniqlangani, raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholash mazmunini takomillashtirishda didaktik vositalardan foydalanish metodikasi hamda uning tizimli modeli ishlab chiqilgani bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqotda talabalarning individual faoliyatini baholash jarayonining mazmuni, shakl va metodlari aniqlashtirilib, raqamli ta’lim muhitida baholashning samaradorligini ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlar asoslangan. Ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar talabalarning individual faoliyatini muntazam kuzatish, tahlil qilish va baholash, shuningdek, ta’lim jarayonida olingan natijalardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiya natijalaridan pedagogika oliy ta’lim muassasalari tizimida bo‘lajak pedagoglarni kasbga tayyorlash, talabalarning individual va mustaqil faoliyatini tashkil etish hamda baholash, matndan o‘rinli foydalanish va ilmiy matnlarni samarali qo‘llay olish jarayonlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar, baholash mezonlari va didaktik vositalardan o‘quv mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim hamda talabalar individual faoliyatini monitoring qilish jarayonlarida foydalanish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, mazkur natijalardan pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘quv-uslubiy materiallar tayyorlash, professor-o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini takomillashtirish hamda raqamli ta’lim muhitida ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan amaliy faoliyatda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotda ilgari surilgan amaliy taklif, ilmiy-metodik tavsiya va ilmiy-amaliy natijalar asosida:

raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual faoliyatini baholashning didaktik imkoniyatlari ta’lim platformalarida talaba faolligini nazorat qiluvchi topshiriqlar ierarxiyasi mustaqil ta’limda matnlar nomuvofiqligiga yo‘nalishlarga mos kontentlarda maqbullashtirish asosidagi takliflar “Pedagogik dasturiy vositalar” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 27-martdagi

68-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan 68-776-son guvohnomasi). Natijada, bo‘lajak pedagoglarini kasbga tayyorlash tiziminining didaktik ta’minotini boyitishga xizmat qilgan;

raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual faoliyatini baholash modeli mustaqil topshiriq matnlar orginalligini ochiq axborot almashish jarayonida akademik topshiriqlarni kasbiy algoritm bo‘yicha natijalarning foydalanuvchilar profillarida aks etishini erkin reglamentda ta’minlashga oid g‘oyalaridan “O‘zbekiston” teleradiokanalida efirga uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari”, “Ta’lim sohasidagi raqamli transformatsiya”, “Oliy ta’limda sun’iy intellekt va raqamlashtirish jarayonlari” dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2026-yil 27-martdagi 05-09-521–son ma’lumotnomasi). Natijada, zamonaviy baholash tizimlarini targ‘ib qilish hamda oliy ta’lim muassasalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etishga oid axborotlarni ommalashtirishga erishilgan;

baholash tizimlarini raqamlashtirish texnologiyalarini “No clone” platformasi talabalarning raqamli savodxonligini kasbiy rivojlantirishga mo‘ljallangan “No Clone” mini loyihalarni kod o‘xshashligini tahlil qilishga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy universitetida 2022–2024-yillar davomida bajarilgan IL-4821091548-sonli “Zamonaviy tahdid va da’vatlar sharoitida O‘zbekiston va Belarus yoshlari ongi shakllanishining ijtimoiy-madaniy va aksiologik asoslari” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti 2026-yil 23-oktabrdagi 04/11-36934-son ma’lumotnomasi). Natijada, talabalarning individual ta’lim faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida baholash, mustaqil ta’lim topshiriqlarining o‘ziga xosligini aniqlash, sun’iy intellektdan foydalanish darajasini tahlil qilish hamda akademik halollik tamoyillariga rioya etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining PhD dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“Kirish” qismda mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika oliy ta’lim tizimi, fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekti va predmeti belgilangan, tadqiqot

usullari hamda ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, tadqiqot ishining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “Raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual faoliyatini baholashning nazariy-metodik asoslari” deb nomlangan bo‘lib, unda raqamli ta’lim muhiti tushunchasi va uning rivojlanish bosqichlari, raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual faoliyatini baholash usullari xamda plagiatni aniqlash va sun’iy intellektdan foydalanganlik ulushini tahlil qilish algoritmlari tahlil qilingan.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirish, o‘quv faoliyatini raqamli axborot muhiti asosida tashkil etish bugungi kunda global ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Raqamli texnologiyalar nafaqat o‘quv resurslarini yaratish va tarqatish imkoniyatini kengaytiradi, balki talabaning shaxsiy o‘sishini kuzatish, individual yondashuvni ta’minlash va ta’lim jarayonining samaradorligini tahlil qilishga ham sharoit yaratadi. Bu borada Respublikamizda ta’limni modernizatsiya qilish, jumladan, baholash tizimini takomillashtirish[2], talabalarning bilimini mustaqil va o‘zaro baholash tizimini yo‘lga qo‘yish zarurligi ta’kidlangan[3]. Shuningdek, mazkur sohada qator ilmiy va uslubiy ishlar olib borilgan.

Tizimni raqamlashtirish pedagog kadrlarning kasbiy faoliyati monitoring qilishning nazariy asoslarini tashkil etishi (M.Aripov), raqamli ta’lim muhiti – bu talaba, o‘qituvchi va o‘quv materiali o‘rtasidagi o‘zaro aloqani raqamli texnologiyalar asosida tashkil etishning moslashuvchan va interaktiv shaklda kechishini ta’minlashi (A.V.Xutorskoy), integratsiyalashgan raqamli ta’lim muhiti talabalarga mustaqil ta’lim olish imkonini kengaytiradi(I.P. Matveeva), shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, talabaning mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda o‘z-o‘zini o‘qitish mexanizmlarini rivojlantiradi, interaktiv kontent va analitik modullarni integratsiya qilish orqali ta’limning individual yo‘nalishini ta’minlaydi (M.P.Laptev, I.G.Semakin), axborot resurslari, texnologik vositalar, metodologik ta’minot hamda ta’lim jarayonini rejalashtirish, monitoring va nazorat komponentni o‘z ichiga oladi (I.V.Robert).

Raqamli ta’lim muhiti talabani faol subyekt sifatida o‘qituvchini esa, o‘quv jarayonining boshqaruvchisi emas, balki raqamli o‘quv traektoriyasini yo‘naltiruvchisi sifatida faoliyatini namoyon qiladi bunda ta’lim jarayonining diqqat markazida talaba bo‘ladi (N.I.Pak, Platonova), raqamli didaktika nafaqat ta’lim mazmuni va metodikasini, balki o‘quv jarayonining butun tuzilmasini — o‘qitish usullari, vositalari hamda natijalarini tubdan o‘zgartiradi (L.M.Andryuxina, N.V.Lomovseva), raqamli muhit kasbiy o‘zini anglash va

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.02.2020-y., 07/20/4623/0220-son.

shakllantirish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydigan faoliyat (E.V.Lebedeva) bo‘lib, talabalarning axborot izlash, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi(F.Mikre).

Raqamli kontentlar faoliyatini tizimli tashkil etish, innovatsion faoliyat bilan uyg‘unlashtirish va raqamli transformatsiyaning barqarorligini kafolatlashda muhim rol o‘ynaydi (Sh.X.Xonqulov, I.I.Raxmatov), talabalarning kasbiy o‘sishi va ijodiy salohiyatini jadallashtiradi (B.E.Qodirov, X.X.Muratov), aralash ta’lim modeli asosida qo‘llash an’anaviy va raqamli ta’limning eng samarali jihatlarini birlashtirib, yanada dinamik o‘quv muhitini tashkil etish imkonini yaratadi (M.Alam, L.Babaxodjaeva).

Tahlillar asosida raqamli ta’lim muhitiga talabaning individual o‘rganish traektoriyasini hisobga olgan holda, pedagogik-didaktik asosda loyihalashtirilgan, talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatiga mobilligini ta’minlovchi texnologik, ijtimoiy-pedagogik tizimdir, degan xulosaga keldik. Ya’ni, ta’lim jarayonini dinamik, moslashuvchan va natijaga yo‘naltirilgan tizim sifatida shakllantiriga asos bo‘ladi.

Raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual faoliyatini baholash usullari talabalarning o‘zlashtirishi va individual faoliyatini baholash tizimini takomillashtirishga bevosita aloqador. Baholash mezonlari ko‘p yillik amaliyotda shakllangan bo‘lsada, ular zamonaviy ta’lim talablariga to‘liq javob bermaydi. Avvalo, an’anaviy baholash ko‘pincha faqat yakuniy natijaga qaratilgan bo‘lib, o‘quv jarayonining oraliq bosqichlarida talabalar olgan bilimlarni mustahkamlash yoki xatolar ustida ishlashga yetarlicha e’tibor bermaydi. Bu esa refleksiya yetishmasligiga olib keladi, ya’ni talaba o‘z natijalarini tahlil qilib, nimani yaxshi o‘zlashtirgani, nimada xato qilganini anglash imkoniyatidan mahrum bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, plagiarizm (ko‘chirib yozish) muammosi mustaqil ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish o‘rniga, ayrim hollarda, talabalar tayyor materiallarni topishga yoki shunchaki yodlab topshirishga moyil bo‘lib qolishiga imkon berishi mumkin. Talabaning o‘quv jarayonidagi o‘sishini kuzatib borish, o‘z vaqtida teskari aloqani ta’minlash orqali rivojlanishini formativ baholash, oraliq yoki yakuniy imtihonlar ko‘rinishida talabaning ma’lum davrdagi yakuniy natijasini summativ baholash amaliyotini raqamli transformatsiya sharoitida moslashtirish zarur.

Integrativ yondashuvlar CLIL (Content and Language Integrated Learning) va TBLT (Task-Based Language Teaching) doirasida ham baholashga yangi talablar qo‘yadi. Shuningdek, talabalar faolligini oshirish va ularni baholashga qiziqtirishda gamifikatsiya elementlari singdirilgan *Kahoot, Mentimeter* kabi interfaol dasturlar raqamli baholash imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, bugungi kunda ba’zi xalqaro til imtihonlarida (IELTS, TOEFL singari) nutqiy qobiliyatni baholash uchun sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanish tajribalari mavjud – kompyuter dasturi test topshiruvchining og‘zaki javobini tovush tahlili va kalit so‘zlar bo‘yicha baholab, shartli ball qo‘yadi. Adaptiv testlar ham innovatsion baholashning bir ko‘rinishi bo‘lib, ularda savollar talabaning avvalgi javoblariga qarab tanlanadi – masalan, ketma-ket to‘g‘ri javob berayotgan talabaga savollar murakkablashib boradi, noto‘g‘ri javob bo‘lsa, sistema savollarni

yengillashtiradi yoki o‘sha mavzuga qaytib, qo‘shimcha savollar beradi. Bu usul har bir talabaning haqiqiy bilim darajasini aniqroq aniqlashga xizmat qiladi, chunki test topshiriqlari shaxsga moslashadi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv ham baholash tizimini yangicha ya’ni, muayyan vaziyatda bilimini qo‘llay olish qobiliyati, talabaning shaxsiy rivojlanishini baholashda “insonning ijtimoiy-kasbiy hayot faoliyatidagi bilimga asoslangan, intellektual va shaxsiy tajribasi”ni umumlashtiradigan (I.A.Zimnyaya), foydalanuvchiga qulay interfeysga ega web-texnologiyalarga asoslangan (M.Fayzieva), virtual va aralash reallik texnologiyalari (VR/AR/MR) asosida o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan (R.K.Atamuratov), yagona pedagogik modelga integratsiya qiligan raqamli ta’limning uzluksizligini va moslashuvchanligini ta’minlovchi metodikalar (N.Kayumova), an’anaviy va elektron o‘qitish resurslarini integratsiyalashda pedagogik, texnologik, tashkiliy va baholash bloklaridan iborat bo‘lgan modellar **(**M.Lutfillaev, R.Eshimov), o‘qituvchining vaqtini tejaydigan va baholashda inson omilini kamaytiradigan avtomatlashtirilgan baholash vositalari zarur. Shu asosda raqamli muhitda talabalarning bilimini sinash va faolligini oshirishga xizmat qiladigan innovatsion dasturiy platformalar qatoriga individual topshiriqlarni avtomatik baholay olish xususiyatiga ega bo‘lgan “No Clone” dasturini taklif etamiz. Platformaning nomi ham “No Clone” (nusxa yo‘q) tamoyiliga ishora qiladi. Dastur talabalar kiritgan yechimlarni belgilangan javoblar shabloni yoki algoritm asosida tekshirib, natijani darhol chiqaradi.

Baxolashning vizualizatsiya va tahliliy panel (dashboard)lardan foydalanish, feedback texnologiyasi, raqamli ta’lim sifatini oshirishda individual baholash, sun’iy intellekt texnologiyalarini sanab o‘tish mumkin. Sun’iy intellekt texnologiyalari rivojlanishi bilan AI-assisted baholash konsepsiyasi ham shakllanmoqda. Bu yerda baholash jarayonining muayyan qismlari sun’iy intellekt yordamida bajariladi yoki optimallashtiriladi. Chatbot – bu o‘quvchi bilan matnli muloqotga kirishib, uning savollariga javob beruvchi yoki aksincha, unga savollar berib bilimini tekshiruvchi dastur bo‘lib, 24/7 rejimida ishlaydi. U talabaning qayerda xato qilganini aniqlab, unga tushuntirish beradi, baholash jarayonini *diagnostik va rivojlantiruvchi* jarayonga aylantiradi.

Plagiatni aniqlash va sun’iy intellektdan foydalanganlik ulushini tahlil qilish algoritmlarini amalga oshirishda an’anaviy matnli plagiat tahlilidan farqli bo‘lgan algoritmik tuzilmani, sintaktik va semantik o‘xshashlikni hamda matnlarning ijodiy transformatsiyasini aniqlash nazarda tutiladi.

Plagiat (lotincha *plagiatus* — “o‘g‘irlangan”) — bu boshqa muallifning ijodiy mahsuloti, g‘oyalari, matnlari yoki tadqiqot natijalarini o‘ziga tegishli qilib ko‘rsatish yoki ularning asl manbalarini ko‘rsatmasdan foydalanish holatidir. Bu tushuncha ilmiy, ijodiy va ta’limiy faoliyatda akademik halollik tamoyiliga zid bo‘lgan eng jiddiy buzilishlardan biri hisoblanadi. **X**alqaro standartlarga ko‘ra, jumladan, IEEE **(**Institute of Electrical and Electronics Engineers**)** etika kodeksida: “Boshqa shaxsning yozma yoki og‘zaki so‘zlarini, g‘oyalarini yoki ish natijalarini o‘ziga tegishli qilib ko‘rsatish” plagat deb ta’riflanadi.

Plagiat boshqa shaxsning fikr, matn yoki ilmiy natijalaridan foydalanish, foydalanilgan manba haqida havola berilmasligi yoki noto‘g‘ri ko‘rsatilishi, shaxsning ma’lum bir afzallik, reyting yoki nufuzga erishishni ko‘zlaydi (Fishman), plagiat “intellektual o‘g‘irlik” emas, balki akademik halollik va ishonchlilik tamoyillarining buzilishi ya’ni, o‘zining avvalgi ishlarini manba ko‘rsatmasdan yoki yangilik kiritmasdan qayta ishlatishni (Roig), bu esa ilmiy madaniyatning zaifligini va talabalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining yetarlicha shakllanmaganini ko‘rsatadi. Yuqoridagi fikrlar asosida plagiat - matnni o‘zlashtirish darajasiga bog‘liq bo‘lib, axloqiy va ijtimoiy motivlarga asoslangan murakkab jarayondir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, plagiatning eng keng tarqalgan: to‘liq plagiat, qisman plagiat, parafraz plagiat, mozaik plagiat, o‘z-o‘zidan plagiat, noto‘g‘ri havola qilish, texnologik plagiat (sun’iy intellekt vositalari yordamida yaratilgan matnni o‘z asari sifatida taqdim etish) kabi turlarini keltirish mumkin. Umuman olganda, plagiat nafaqat ilmiy axloq buzilishi, balki ta’lim sifatiga, baholashning ishonchliligiga va raqamli muhitda bilim almashinuvining shaffofligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida qaraladi.

Shuningdek, hozirgi davrda plagiatni aniqlashning asosiy algoritmik yondashuvlari: satrlarni taqqoslash, aniq moslik asosida qidirish, taxminiy moslik asosida qidirish yozuvdagi xatoliklar, so‘z tartibining o‘zgarishi yoki kichik parafraz holatlarini aniqlash imkonini beradi. Barmoq izi *(*har bir matndan uning o‘ziga xosligi) va tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) usuli (matnni sathiy shaklda hamda grammatik, semantik va uslubiy jihatdan tahlil qilish) usullari asosida kod o‘xshashligini aniqlash yondashuvlarini asosan to‘rt asosiy: matnli (text-based), token-asosli (token-based), strukturaviy (structure-based) va metrik-asosli (metric-based) taqqoslash guruhlariga bo‘lish mumkin.

Dissertatsiyaning 2-bobi “**Raqamli ta’lim muhitida talabalar individual faoliyatini baholashda “No Clone” dasturidan foydalanish metodikasini takomillashtirish**” deb nomlangan bo‘lib, u raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual faoliyatini baholash modeli, baholash tizimlarini raqamlashtirish texnologiyalaridan foydalanishning metodik asoslari hamda talabalar faoliyatini baholashda “No Clone” dasturini baholash jarayoniga integratsiya qilish metodikasini o‘z ichiga oladi.

Pedagogik paradigma – muayyan davrda ta’lim tizimining maqsad, mazmun va metodlarini belgilovchi konseptual model sifatida – ta’lim jarayonini tashkil etishning metodologik asosini belgilaydi va o‘quvchi, o‘qituvchi hamda o‘quv jarayoni o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlovchi asosiy omil hisoblanadi. Ushbu nuqtai nazardan yondashilganda, ta’lim mazmunini differensiyalamasdan individual ehtiyojlarni qondirish mumkin emas.

Zamonaviy ta’lim tizimini modernizatsiyalash sharoitida talabalarning individual faoliyatini baholash masalasi oliy pedagogik ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Talabalarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalari, o‘zgaruvchan ijtimoiy shart-sharoitlarga moslashish qobiliyati va kasb trayektoriyasini erkin shakllantirish ko‘nikmalari faqat individuallashtirish tamoyillariga tayangan ta’lim orqali rivojlantirilishi mumkin (1-rasm).



1-rasm. Raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish modeli

Raqamli ta’lim muhitini tashkil etish va individual faoliyatni baholash jarayonini loyihalashda tizimli, kompetentlik va integrativ yondashuvlar asosiy metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Ushbu tamoyillar asosida raqamli ta’lim muhitida talabalarning individual faoliyatini baholashning funksional modeli ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan model maqsad, mazmun, jarayon va diagnostik-natijaviy komponentlardan tashkil topgan.

Sun’iy intellektga asoslangan baholash tizimlarini tatbiq etishda pedagogik moslashuvchanlik, shaffoflik, o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi va milliy ta’lim muhitiga moslashtirish muhim shart hisoblanadi. Baholashda AI vositalarini qo‘llash «inson–texnologiya hamkorligi» modeli doirasida amalga oshirilishi lozim: texnologiya tahlilchi va yordamchi rolini bajaradi, inson esa interpretator va qaror qabul qiluvchi subyekt sifatida markazda qoladi.

Tizimli yondashuv ta’lim subyektlarining o‘zaro aloqadorlik va ta’sirlashuv mexanizmlarini kompleks pedagogik tizim sifatida talqin qilishga asos yaratsa, kompetentlik yondashuvi baholash tizimini kognitiv, raqamli, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarga nisbatan quradi. Integrativ yondashuv esa raqamli va nazariy jihatlarni amaliy-kasbiy mazmun bilan uyg‘unlashtirishni ta’minlaydi. Modelni loyihalashda muntazamlik va izchillik, kasbiy faoliyatni modellashtirish, pedagogik klaster, mobillik, ta’limda individuallik hamda pedagogik jarayonni raqamlashtirish tamoyillariga amal qilindi. Baholash tizimlarini raqamlashtirish texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan “No Clone” dasturi ushbu yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishning muayyan metodikasini taqdim etadi.

Axborot texnologiyalarining keng rivojlanishi natijasida internetdagi tayyor materiallardan nusxa ko‘chirish imkoniyatlarining ortishi akademik halollikka tahdid tug‘dirmoqda. An’anaviy baholash usullari topshiriqlarning original yoki ko‘chirilganligini aniqlashda yetarli ishonchlilikni ta’minlay olmaydi. Ushbu muammo plagiatni aniqlashga yo‘naltirilgan raqamli vositalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishni zamonaviy pedagogikaning dolzarb talabiga aylantiradi.

Tadqiqot doirasida talabalarning mustaqil topshiriqlarini xolis baholash va akademik halollikni ta’minlash maqsadida maxsus “No Clone” dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur modulli arxitektura tamoyiliga tayanib, backend (Python/Django) va frontend (HTML, CSS, JavaScript) qismlarining yaxlit integratsiyasiga asoslanadi. Backend qismiga NLP elementlari, matnni segmentlash va o‘xshashlik koeffitsientlarini hisoblash imkoniyatlari integratsiya qilingan. Dastur uch asosiy funksiyani bajaradi: plagiat mavjudligi yoki yo‘qligi haqida aniq xulosa beradi; plagiat aniqlanmagan holatda avtomatik ravishda ball belgilaydi; matnning boshqa manbalar bilan o‘xshashligini foiz ko‘rsatkichi shaklida aks ettiradi.

Psixologik nuqtai nazardan, Banduraning ijtimoiy kognitiv nazariyasiga ko‘ra, baholash jarayonining shaffof va adolatli tashkil etilishi talabalarda mas’uliyatli va halol xatti-harakatni kuzatuv orqali o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Natijada, akademik halollikni ta’minlovchi vositalar nafaqat nazorat kuchini oshiradi, balki talabaning axloqiy pozitsiyasini mustahkamlaydi va mustaqil ijodiy faoliyatga motivatsiyani kuchaytiradi.

Tadqiqot doirasida 60110600 – Matematika va informatika ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabalari uchun “Umumiy pedagogika” fanidan “Ta’lim mazmuni. Ta’lim metodlari va vositalari” ma’ruza mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda 80 daqiqalik mashg‘ulot besh bosqich asosida tashkil etildi.

Birinchi bosqich – tashkiliy-motivatsion qism (5 daqiqa): talabalar bilan iliq muloqot asosida salomlashiladi, davomat aniqlanadi, psixologik muhit shakllantiriladi va mashg‘ulotning maqsadi, kutilayotgan natijalari hamda talabalar egallashi kerak bo‘lgan kompetensiyalar aniq bayon qilinadi.

Ikkinchi bosqich – kirish va muammoli savol qo‘yish (10 daqiqa): “Nima sababdan bir xil mavzu turli metodlar bilan o‘qitilganda o‘quv natijalari keskin farq qiladi?” muammoli savoli orqali talabalar mustaqil tahlilga yo‘naltiriladi. Talabalarning mavzu bo‘yicha mavjud bilim darajasini aniqlash maqsadida Kahoot platformasi orqali interaktiv mini-quiz o‘tkaziladi.

Uchinchi bosqich – asosiy mazmuniy bosqich (45 daqiqa): ta’lim mazmunining tarkibi, metodlar tasnifi va zamonaviy pedagogik vositalar taqdimot asosida yoritiladi. Ushbu bosqichda ikki interaktiv metod qo‘llaniladi: “Aqliy hujum” (Brainstorming) metodida talabalar "Ta’lim mazmuni nimalardan iborat?" savoliga tezkor g‘oyalar bildirib, javoblar slaydda klaster shaklida aks ettiriladi; “INSERT” metodida esa talabalar taqdimotdagi matnni o‘qib, “tanish”, “yangi”, “zid”, “o‘ylantirib qo‘ydi” belgilari orqali o‘z munosabatlarini bildiradilar.

